O‘zMU XABARLARI

ВЕСТНИК НУУз

ACTA NUUz

MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI ILMIY JURNALI

JURNAL
1997 YILDAN
CHIQA
BOSHLAGAN

2025
3/1
Tabiiy fanlar turkumi

Bosh muharrir:
MADJIDOV I.U. – t.f.d., professor
Bosh muharrir o‘rinbosari:
ERGASHOV Y.S.– f-m f.d., professor

Tahrir hay’ati:
Sabirov R.Z. – b.f.d., akademik
Jabbarov Z.A. – b.f.d., prof.
Raximova T.U. – b.f.d., prof.
Boboyev S.G‘. – b.f.d., prof.
Jobborov B.T. – b.f.d., dots.
Safarov K.S. – b.f.d., prof
Cezary Kabała. – b.f.d., prof.
Qodirova Sh.A. – k.f.d., prof.
Smanova Z.A. – k.f.d., prof.
Xoliqov A.J. – k.f.d., prof.
Xaitboyev A.X. – k.f.d., prof.
Mahkamov M.A. – k.f.d., prof.
Gulzeinep U. Begimova – k.f.d., prof
Musaxanov M. – f-m.f.d., prof. akademik
Otajonov Sh. – f-m.f.d., prof.
Tursunmetov K.A. – f-m.f.d., prof.
Nuritdinov S.N. – f-m.f.d., prof.
Polvonov S.R. – f-m.f.d., prof.
Xikmatov F. – g.f.d., prof
Berdiyorov G. R. - Senior Scientist, Energy Center, Qatar
Sabitova N.I. – g.f.d., prof.
Tojiyeva Z.N. – g.f.d., prof.
Umarov A.Z. – g.-m.f.n., prof.
Ishbayev X.Dj. – g.-m.f.d., prof.
Xoroshev A.V. – g.f.d., prof.

Mas’ul kotib: **PARDAYEV Z.A.**

TOSHKENT – 2025

Kuvondikov R., Egamberdiyev A. Chorvachilikni xaritaga olishni ayrim nazariy va amaliy masalalari 151
Qoriyev M., Rahmonova N., Halimjonov A. Namangan viloyatining so‘nggi 30 yildagi yog‘in miqdoridagi o‘zgarishlar 155
Muhamadaliyev R., Nizyazov A. O‘zbekiston avtomobil yo‘llarining shakllanishi va rivojlanishi 159
Мансуров М., Хусанов С. Стратиграфия верхнеюрской карбонатной формации Юго-Западных отрогов Гиссарского хребта 163
Matchanova A., Shomurodov M. Xorazm viloyatida etnografik turizmni rivojlantirishning geografik xususiyatlari 166
Раҳматуллаева Ш., Туляганова Н. Геодинамическая обстановка формирования Марджанбулакского рудного поля 169
Саидова М., Таджибаева Ф., Абдусаматова Д. Оценка полезных ископаемых и изучение песчано-гравийной смеси четвертичных отложений «Янги-базар» 173
Sultanov P., Meliboyev B., Xusanbayev D., To‘xtasinov A. Paleogen davri So‘zoq yotqiziqlarining litologik-fatsial sharoitlarining raqamli xaritasi (Farg‘ona botig‘i va Toshkentoldi hududlari misolida) 176
Tadjibayeva F., Saidova M., Abdusamatova D. Chotqol-Qurama, Turkiston-Nurota va Zirabuloq-Ziyovuddin tog‘larida tabiiy dekorativ (pardozbob) toshlarni o‘rganish 179
Temirov Z. Go‘daklar o‘limi va unga ta’sir etuvchi geografik omillar (Andijon viloyati misolida) 182
Tojiyeva Z., Omanova K. O‘zbekiston Respublikasi qishloq aholisida demografik o‘tish davri 187
To‘xtasinov A., Xusanbaev D., Amirqulov J. “Geofizikaviy tadqiqot usullari” fanini o‘qitishda zamonaviy texnologiyalarni qo‘llash 191
O‘tamurodov E. Zirabuloq granitoidli intruzivi monchikit daykasining moddiy tarkibi va ma’dandorligi (Zirabuloq tog‘lari) 196
Xolboyev G., Egamberdiyev X., Shermuxamedov., Eshmirzayev D. Iqlim o‘zgarishi sharoitida hududlarining issiqlik ta’minotini baholash 200
Xoliyorov A., Ejkov Y. Mang‘it granit-pegmatit konining noyob metall ma’danlashuv istiqbollarini baholash mezonlari, geokimyosi va mineralogiyasi 204
Холмирзаев М., Мирфайзиева Ф., Атакулова М. Оценки состояния загрязнения пород и подземных вод углеводородных загрязнителями 208
Хусомиддинова А., Зиёмов Б. Оценка сейсмческой опасности Ташкентской области на основе современных информационных технологий 211
Хусанов С., Мансуров М., Алимов М. Палеонтологические исследования верхнеюрских карбонатных формаций Южного и Западного Узбекистана 215
Sherxolov O., Musayev B., Iskandarov O., Umarova Sh. Navoiy viloyati mehnat resurslari va ularning kelajakdagi o‘zgarishi 219
Ergasheva Y., Ermaxametova E., Amangeldiyeva U. 3d-raqamli xaritalarda joyni o‘rganish va tadqiq qilish 223
Ernazarov Sh., Pardayev N. Ta’lim tizimini geografik tadqiq etishning ilmiy-nazariy masalalari 226
Eshquvvatova B., Xurramova N. O‘rta Zarafshon havzasidagi landshaftlar o‘zgarishini monitoring qilish bosqichlari 229
Eshmuradov O., Raximov K., Begijonov I., Komilov T., Yermenev S. To‘lqin dinamikasi usuli bilan burg‘ilash quvurlarini siqilib qolishini oldini olish nazariyasini asoslash 232
Юнусова О., Ташмухамедов Б., Адилов Б. Развития и вероятные нефтегазоносные ярусы региона 236
Yusupov U., Raximova N., Bekchanov J. Olmaliq ma’dan maydoni mintaqaviy va mahaliy tektonik yer yoriqlari zonalarida ma’danlashuv 239
Ядгаров И. 3d-моделирование урановых месторождений в государственном предприятии «Навоийуран» 243

Kimyo

Ablakulov L., **Ikramov A., Ziyadullayev O., Abduraxmanova S.** Grinyar-iotsich reagenti asosida atsetilen diollari sintezi 246
Asrorova Z., **Yaxshiyeva Z., Jurayeva M., Saidmirzayeva D.** 2-Amino-5-etil-1,3,4-tiadiazolning termokimyoviy tahlili 250
Buronov A., **Nasrullaev A., Lifei N., Bozorov K., Aisa H.** (E)-5-(3,4-dimetoksibenziliden)-3-metil-6,7-digidropirrolo[1,2-a]tieno[3,2-d]pirimidin-9(5h)-on sintezi 253
G‘aybullayev Sh., **Zohidov Q., Trobov X., Bozorov X.** Protein kinaza oqsili va xinazolin hosilalarining o‘zaro ta’sirlashuvlarini molekulyar doking usulida o‘rganish 257
Jo‘rayev R., **Uroqova M.** Infraqizil spektroskopiyada pyrogallolning molekulyar tebranish tahlili 261
Каланова М., **Хашимова З**., **Кахарова К., Салахутдинова М., Амонова Д**., **Тураев А**., **Мухторов А**. Изучение цитотоксической активности полисахаридов в культуре клеток 265
Mamadoliyev I., **Sharipova O.** Adsorbentlar yaratish uchun navbahor bentonitining tarkibi va strukturaviy xususiyatlarini o‘rganish 268
Mamedova M., **Smanova Z., Abdullayeva M.** Toshkent viloyati Olmaliq KMK hududi tuprog‘i tarkibidagi og‘ir metallarni hamda Cr, Pb ionlarini mass-spektrometrik usullarda aniqlash va monitoring qilish 272
Matchanov A., Ochilov Sh., YusufovM., Toshmatov Z., Otavaliyev I., Abdushukurov A. 2,2'-(5-ftor-2,4 dioksopirimidin-1,3(2h,4h)-diil)bis (n-(3-(triftormetil) fenil) asetamidning sintezi va biologik faolligi 275
Mirzaraximov A., Komilov K., Muhamedov G‘. Modifikatsiyalangan fosfogips-interpolimer kompleks kompozitlarini olish va xossalarini o'rganish 279
Nazarova M., **Boqiyev Q., Sayfiyev M., Ziyayev D., Ixtiyarova G.** Xitozan bilan modifikatsiyalangan uglerod pastali elektrod bilan qo‘rg‘oshin miqdorini aniqlash 283
Ochilov Sh., **Yusufov M., Nurboboyev Z., Abdumalikov A., Otavaliyev I., Abdushukurov A., Tojimuhammedov H., Matchanov A.** 5-Ftoruratsilning 3-ftor 4-nitro n-xloratsetil anilin asosidagi yangi hosilasini sintez qilish va biologik faolligini o‘rganish 287

O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI XABARLARI, 2025, [3/1]
ISSN 2181-7324

GEOLOGIYA
http://journals.nuu.uz
Natural sciences

UDK: 314.186.4

Zokirjon TEMIROV,
Andijon davlat universiteti dotsenti, PhD
E-mail: zokirjon82@mail.ru
Orcid: 0000-0002-1170-9889

FarDU Geografiya kafedrasi mudiri, (PhD) Z.Madaminov taqrizi asosida

GO’DAKLAR O’LIMI VA UNGA TA’SIR ETUVCHI GEOGRAFIK OMILLAR (ANDIJON VILOYATI MISOLIDA)

Annotatsiya

Andijon - O‘zbekistonning o‘ziga xos demografik salohiyatga ega viloyati hisoblanadi. Viloyatda bir yoshgacha bo‘lgan bolalar o‘limi so‘nggi o‘n yillikda respublika ko‘rsatkichidan yuqori bo‘lib kelmoqda. Shu maqsadda go‘daklar o‘limi hamda unga ta’sir etuvchi geografik omillarni Andijon viloyati misolida tadqiq etildi.

Kalit so‘zlar: Andijon viloyati, go’daklar o’limi, geografik omillar, urboekologik vaziyat, demografik omil, geoekologik omil.

INFANT MORTALITY AND GEOGRAPHICAL FACTORS AFFECTING IT (ON THE EXAMPLE OF THE ANDIJAN REGION)

Annotation

Andijan is a region of Uzbekistan with unique demographic potential. The mortality rate of children under one year of age in the region has been higher than the national average for the past decade. For this purpose, infant mortality and the geographical factors affecting it were researched using the example of Andijan region.

Key words: Andijan region, infant mortality, geographical factors, urban-ecological situation, demographic factor, geo-ecological factor.

МЛАДЕНЧЕСКАЯ СМЕРТНОСТЬ И ГЕОГРАФИЧЕСКИЕ ФАКТОРЫ, ВЛИЯЮЩИЕ НА НЕЕ (НА ПРИМЕРЕ АНДИЖАНСКОЙ ОБЛАСТИ)

Аннотация

Андижан - область Узбекистана с уникальным демографическим потенциалом. Смертность детей в возрасте до одного года в области за последнее десятилетие была выше, чем в среднем по стране. С этой целью на примере Андижанской области исследована младенческая смертность и географические факторы, влияющие на нее.

Ключевые слова: Андижанская область, младенческая смертность, географические факторы, урбоэкологическая ситуация, демографический фактор, геоэкологический фактор.

Kirish. Jahon miqyosida hozirgi kunda go‘daklar o‘limiga ta’sir etuvchi endogen va ekzogen, ayniqsa kvaziendogen omillarni aniqlash hamda bolalar salomatligini yaxshilashga alohida ahamiyat berilmoqda. Shunga bog‘liq holda, go‘daklar o‘limini yaxlit kategoriya sifatida tadqiq etish, unga ta’sir etuvchi tabiiy, ijtimoiy-iqtisodiy va demografik omillarni aniqlash, sabablarga ko‘ra o‘lim holatlarini tahlil etish va prognoz qilish muhim vazifalardan biri hisoblanadi.

Hozirgi kunda respublikamizda aholi salomatligini yaxshilash, demografik jarayon hisoblangan go‘daklar o‘limi holatini kamaytirish bo‘yicha keng qamrovli chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O‘zbekiston-2030” strategiyasi tog‘risidagi PF-158-son farmonida “Onalar va bolalar o‘limini qisqartirish, sog‘lom bolalikni ta’minlash” borasida muhim vazifalar belgilab qo‘yilgan. Jumladan, homiladorlik aniqlangan vaqtdan boshlab tug‘uruqdan so‘ng 42 kun ichida ayollar, go‘daklar va besh yoshgacha bolalar orasidagi o‘limni **2 barobarga** kamaytirish vazifasi kiritilgan [2]. Bu borada hududlardagi go‘daklar o‘limi dinamikasi, uning hududiy tafovutlari hamda unga ta’sir etuvchi geografik omillarni aniqlashga yo‘naltirilgan ilmiy-tadqiqotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

Adabiyotlar tahlili. O‘zbekistonda aholishunoslik, demografik jarayonlar, o‘lim va go‘daklar o‘limi masalalari bilan M.Q.Qoraxonov, I.R.Mullajonov, X.Salimov, E.A.Ahmedov, R.A.Ubaydullaeva, O.B.Ata-Mirzaev, A.A.Qayumov, Q.X.Abduraxmonov, A.S.Soliev, L.P.Maksakova, M.R.Bo‘rieva, Z.N.Tojieva, N.Q.Komilova, I.Turdimambetov, R.B.Qodirov, G.A.Xodjaeva, N.J.Yembergenov, N.J.Muhammedova va boshqa olimlar ilmiy tadqiqot ishlarini olib borishgan. Yuqorida keltirilgan olimlarning ilmiy ishlarida Andijon viloyatida go‘daklar o‘limi hamda unga ta’sir etuvchi geografik omillar masalalari yetarlicha tadqiq etilmaganligi mazkur tadqiqot ishi mavzusining tanlanishiga asos bo‘ldi.

Tadqiqot obyekti. Mazkur tadqiqot obyekti sifatida Andijon viloyati aholisi va go’daklar o’limi jarayoni olingan.

Tadqiqot metodologiyasi. Maqolada geografik taqqoslash, tizim-tarkib, hududiy tahlil, tarixiy, statistik-matematik, baholash kabi metodlardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar. O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy, siyosiy, huquqiy yo‘nalishdagi barcha islohotlar pirovard natijada inson qadrini yuksaltirishga qaratilgan. Oilada sog‘lom muhit yaratish, barkamol avlod tarbiyalashda go‘daklar o‘limini o‘rganish muhim ahamiyat kasb etadi. Zero, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev aytganidek “Ona va bola sog‘lig‘iga e’tibor - jamiyatga, kelajakka e’tibor” hisoblanadi [3].

Andijon viloyatda aholining reproduktiv salomatligini yahshilash, ona va bola salomatligini muhofaza qilish, sog‘lom avlod tug‘ilishi va go‘daklar o‘limini kamaytirish bo‘yicha bir qator ishlar amalga oshirilmoqda. Natijada, viloyatda 1991-2023 yillar davomida chaqaloqlar o‘limi ko‘rsatkichi sezilarli darajada kamayganini kuzatish mumkin (1-rasm).



1-rasm. O’zbekiston Respublikasi va Andijon viloyatida go’daklar o’limi koeffisienti

1991 yilda har mingta tirik tug‘ilgan chaqaloqqa nisbatan bir yoshgacha vafot etgan bolalar soni 31,1 tani tashkil etgan. Keyingi yillarda bu ko‘rsatkich kamayib bordi va 2000 yilda 15,5 ta, 2010 yilda 9,4 ta 2023 yilda 9,9 tani tashkil etdi. Shuni alohida ta’kidlash lozimki, 2011 yilga qadar Andijon viloyatida go‘daklar o‘limi koeffisienti respublika ko‘rsatkichidan past bo‘lib kelgan bo‘lsa, undan keyingi davrda viloyat ko‘rsatkichi mamlakatning o‘rtacha koeffisientidan yuqori bo‘lib kelmoqda. Bu esa Andijon viloyatida go‘daklar o‘limi hamda unga ta’sir etuvchi omillarni tadqiq etish dolzarb ahamiyatga ega ekanligini bildiradi.

O‘zbekiston Respublikasi, xususan Andijon viloyatida onalik va bolalikni muhofaza qilish, tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, sog‘lom ona va sog‘lom bola shiori ostida amalga oshirilgan islohatlar natijasida bir yoshgacha go‘daklar o‘limida kamayish kuzatilmoqda. Shu bilan birga go‘daklar o‘limini asosiy sabablarida davriy o‘zgarish kuzatilmoqda (2-rasm)



2-rasm. Andijon viloyatida go’daklar o’limi sabablarini dinamikasi

Go‘daklar o‘limi sabablari bo‘yicha tahlil qilinganda, 2010 yilda nafas olish a’zolari kasalliklari bilan vafot etish xolatlari ang ko‘p kuzatilgan (46,1 foiz), shuningdek, perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar (37,1 foiz), tug‘ma anomaliyalardan (13,3 foiz) vafot etish xolatlari ko‘p bo‘lgan. Keyingi yillarda perinatal davrda yuzaga kelgan sabablar bo‘yicha go‘daklar o‘limi soni ortib bormoqda. Jumladan, 2020 yilda chaqaloqlar o‘limining 63,7 foizida perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar asosiy sabab bo‘lmoqda.

Andijon viloyatida go‘daklar o‘limini 2010-2020 yillardagi dinamikasi o‘ziga xos hududiy xususiyatlarga va tafovutlarga ega (2-jadval).

2-jadval

Andijon viloyati shahar va tumanlarida chaqaloqlar o‘limi koeffisenti

№	Tuman va shaharlar nomi	2010			2012			2020			O’zgarishlar indeksi
		Tug’il ganlar soni	O’lgan chaqa loqlar soni	Chaqa loqlar o’limi koef fisenti	Tug’il ganlar soni	O’lgan chaqa loqlar soni	Chaqa loqlar o’limi koef fisenti	Tug’il ganlar soni	O’lgan chaqa loqlar soni	Chaqa loqlar o’limi koef fisenti	
1	Andijon sh.	8049	76	9.4	7858	72	9.2	11603	180	15,5	1,6
2	Honobod sh.	798	11	13.8	718	9	12.5	840	20	23,8	1.7
3	Oltinko’l	3638	28	7.7	3234	19	5.9	4756	69	14,5	1.9
4	Andijon	5434	39	7.2	4560	36	7.9	7057	104	14,7	2,0
5	Baliqchi	3865	31	8.0	3622	27	7.5	5227	63	12,1	1,5
6	Bo’ston	1371	7	5.1	1265	6	4.7	1876	24	12,8	2,5
7	Izboskan	4821	48	10.0	4473	40	8.9	6269	106	16,9	1,7
8	Ulug’nor	1158	5	4.3	1097	5	4.6	1525	30	19,7	4,6
9	Asaka	6178	70	11.3	5893	52	8.8	8682	145	16,7	1,5
10	Jalaquduq	3815	29	7.6	3399	25	7.4	4565	36	7,9	1,0
11	Qo’rg’ontepa	4400	30	6.8	3695	22	6.0	5048	34	6,7	0,98
12	Xo’jaobod	2186	21	9.6	2070	19	9.2	2946	29	9,8	1,02
13	Marhamat	3300	33	10.0	3096	45	14.5	4361	40	9,2	0,92
14	Shahrixon	6113	68	11.1	5561	71	12.8	8029	79	9,8	0,92
15	Paxtaobod	4013	47	11.7	3792	44	11.6	5186	50	9,6	0,82
16	Buloqboshi	2673	31	11.6	2415	17	7.0	3455	26	7,5	0,64
	Viloyat bo’y.	61887	563	9.1	56748	461	7.0	81425	1035	12,7	1,4

Jadval viloyat statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida tuzildi.

- Go‘daklar o‘limi ortib borgan tumanlar
- Go‘daklar o‘limi o‘zgarishsiz tumanlar
- Go‘daklar o‘limi kamayib borgan tumanlar

Yuqoridagi jadval ma’lumotlariga ko‘ra, Andijon viloyatida 2010-2020 yillarda go‘daklar o‘limi koeffisienti har mingta tirik tug‘ilgan chaqaloqqa nisbatan 9.1 ta to‘g‘ri kelgan bo‘lsa, 2020 yilda bu ko‘rsatkich 12,7 taga ortganligi kuzatildi. Shuningdek,

viloyat shahar va tumanlarida mazkur dinamika turlicha ko‘risnishga ega bo‘ldi. Jumladan, viloyat aholisini qariyb 60 foizini tashkil etuvchi Oltinko‘l, Andijon, Baliqchi, Bo‘ston, Izboskan, Ulug‘nor, Asaka tumanlari hamda Andijon va Honobod shaharlarida tahlil qilinayotgan yillarda go‘daklar o‘limini ortishi kuzatildi. Mazkur tumanlar orasida eng yuqori daraja Bo‘ston va Ulug‘nor tumanlarida kuzatildi. Viloyat aholisini 15 foiz aholisini tashkil etuvchi Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa va Xo‘jaobod tumanlarida go‘daklar o‘limi koeffisientida o‘zgarishlar kuzatilmadi. Viloyat aholisini 25 foizida, jumladan Buloqboshi, Marxamat, Paxtaobod, Shahrixon tumanlarida go‘daklar o‘limi kamayganini kuzatish mumkin. Mazkur o‘zgarishlarni Andijon viloyati tuman va shaharlarini joylashuvi bo‘yicha tahlil qilinganda viloyatning asosan markaziy va g‘arbiy tumanlarida go‘daklar o‘limini ortib borganligi, sharqiy tumanlarida esa o‘zgarishsiz, yoki kamaygani kuzatilgan. Bunda, viloyat tumanlarini g‘arbdan sharqqa go‘daklar o‘limi kamayib borgan degan hulosaga kelish mumkin. Shuningdek, Andijon hamda Honobod shaharlarida ham bu ko‘rsatkich ortib borgan.

Go‘daklar o‘limiga turli omillar ta’sir etadi. Jumladan, tibbiy, ekologik, iqtisodiy, ijtimoiy omillar, irsiy kasalliklar, turli epidemiyalar va hk. Mazkur tadqiqot ishida go‘daklar o‘limiga ta’sir etuvchi geografik omillarni aniqlashga harakat qilindi.

Iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillar- Urbanizatsiya. Andijon viloyati mamlakatda urbanizatsiyaning o‘ziga xosligi bilan ajralib turadi. Viloyatda urbanizatsiya darajasi 52,5 foizni tashkil etib, Andijon va Honobod shaharlari viloyatga bo‘ysunuvchi shahar xisoblanadi. Urbanizatsiya darajasi rivojlanishiga ko‘ra Andijon viloyati tuman va shaharlarini yuqori urbanizatsiyalashgan, o‘rtacha va past urbanizatsiyalashgan tumanlar guruhiga ajratildi. Unga ko‘ra, Andijon va Honobod shaharlari, shuningdek, Andijon va Marxamat tumanlari yuqori guruhga, Oltinko‘l, Buloqboshi, Jalaquduq, Qo‘rg‘ontepa va Xo‘jaobod tumanlari o‘rtacha guruhga va qongan tumanlar past darajada urbanizatsiyalashgan guruhga kiritildi (3-jadval).

Andijon viloyati sanoati iqtisodiyotning yetakchi tarmog‘i sifatida viloyatning iqtisodiy holatini o‘zgartiradi va iqtisodiyotning ijtimoiy barqarorligini ta’minlaydi.

Mazkur tadqiqot ishida sanoatning umumiy ko‘rsatkichlari bo‘yicha tahlillarga asoslandi. Unga ko‘ra, Andijon viloyatida sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishda eng katta salmoqqa ega bo‘lgan tumanlar Asaka, Qo‘rg‘ontepa, Xo‘jaobod, Baliqchi tumanlari, Andijon hamda Xonobod shaharlari hisoblansa, mazkur tuman va shaharlar urbanizatsiya darajasining yuqoriligi bilan ham ajralib turibdi.

Yuqorida aytib o‘tilgandek, go‘daklar o‘limiga bir omil emas, bir necha omil birgalikda yoki uyg‘unlikda ta’sir etadi. Urbanizatsiyaning yuqori bo‘lishi albatta

3-jadval

Andijon viloyatida go‘daklar o‘limiga ta’sir etuvchi geografik omillar

Hudud nomi	Iqtisodiy-ijtimoiy geografik omillar				Geodemografik omillar		Geoekologik omillar
	Godaklar o’limi koef	Urbanizatsiya	Sanoatlashish (% his)	Har 10 ming kishiga to‘g‘ri keluvchi ko‘ykalar soni	18 yoshgacha ona bo‘lganlar soni (har 10 mingta ayolga nisbatan)	17-18 yoshdagi qizlarga nisbatan tug’ilish koeffisienti	Atmosfera ifloslanishi (tonna xisobida)
Andijon shahri	15,6	100,0	14,6	149,5	8,91	33,1	9 830,0
Xonobod shah	23,8	82,7	4,1	36,4	5,77	24,2	5,0
Oltinko‘l	14,5	52,9	2,0	24,6	6,53	22,9	27,9
Andijon	14,7	75,3	2,4	27,4	5,92	24,3	16,8
Baliqchi	12,1	35,3	2,5	44,1	2,51	9,3	0,5
Bo‘ston	12,8	34,4	0,8	23,6	5,04	18,4	46,3
Buloqboshi	7,5	49,5	1,3	47,0	3,40	12,5	1,4
Jalaquduq	7,9	41,6	2,0	50,0	2,82	10,3	23,5
Izboskan	16,9	32,0	2,0	34,6	3,99	14,8	1,8
Ulug‘nor	19,7	10,3	0,9	17,3	3,50	12,8	2,6
Qo‘rg‘ontepa	6,7	43,6	4,2	25,0	4,37	16,2	41,7
Asaka	16,7	30,7	54,5	43,8	6,17	24,1	560,2
Marhamat	9,8	79,6	1,1	45,2	4,03	13,6	1,8
Shahrixon	9,8	33,2	2,3	25,4	9,22	29,6	0,6
Paxtaobod	9,6	37,1	1,6	44,4	3,78	13,6	0,5
Xo‘jaobod	9,8	42,2	3,9	33,5	3,14	11,2	724,1
Jami:	**12,7**	**52,5**	**100**	**51,7**	**4,9**	**18,2**	**11 285**
	-10,0	**37,7**	**-5,25**	**4,1**	**3,84**	**-14,2**	**-5,5**
	10,0-15,5	**37,7-67,7**	**5,25-7,35**	**3,1-4,0**	**3,85-6,0**	**14,3-22,2**	**5,6-20,7**
	15,5+	**67,7**	**7,36+**	**-3**	**6,1+**	**+22,3**	**20,8+**

*-2022 yilda Jalaquduq tumanida 1 nafar va Paxtaobod tumanida 3 nafar qiz 17 yoshida turmushga chiqqan.

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

hududda sanoatning ustun ahamiyatga ega bo‘lishida muhim omil sanaladi. Shuningdek, shaharlarda sanoatning rivojlanishi, transport va boshqa omillar ta’sirida atmosferaga chiqariladigan zararli gazlar va chiqindilar miqdorini ortishiga olib keladi. Bunda biz tomonimizdan aniqlangan iqtisodiy va ijtimoiy geografik omillar bilan birga geoekologik omilning uyg‘unlashuvini kuzatish mumkin bo‘ladi.

Andijon viloyatida Andijon shahri va unga qo‘shni Oltinko‘l, Andijon tumanlari, avtomobilsozlik markazi hisoblangan Asaka tumani, shuningdek, trikotaj hamda qurilish materiallari ishlab chiqarishda yetakchi bo‘lgan Xo‘jaobod tumani, Qo‘rg‘ontepa, Jalaquduq tumanlarida atmosferaga chiqarilayotgan zararli gazlar va chiqindilar miqdori yuqoriligi bilan ajralib turibdi. Mazkur tumanlarda go‘daklar o‘limini asosiy omillari sifatida geoekologik omilni keltirib o‘tish joiz.

Go‘daklar o‘limi tahliliga ko‘ra, aksariyat vafot etayotgan bir yoshgacha bo‘lgan bolalar onalarning birinchi farzandi, yoki yosh onalarda eng ko‘p kuzatilmoqda. Go‘daklar o‘limida onalarning ilk nikohga kirish yoshi, birinchi farzand ko‘rish yoshi, ilk nikoh va birinchi farzand ko‘rish yoshi orasidagi davr (protogenetik interval), birinchi, ikkinchi va undan keyingi farzandlar orasidagi davr (intergenetik interval) kabi geodemografik omillarning ham o‘rni katta hisoblanadi. Andijon viloyati aholisi statistik ma’lumotlari tahliliga ko‘ra 2022 yilda 18 yoshga yetmasdan ona bo‘lganlar soni har mingta ayolga nisbatan Andijon shahri, Oltinko‘l, Asaka va Shahrixon tumanlarida yuqori ko‘rsatkichga ega. Bunda Andijon shahri, Asaka, Oltinko‘l tumanlarida aholi milliy tarkibining murakkablashuvi natijasida shaharlarda milliy urf-odatlar, qadriyatlarning zaiflashib borishi asosiy omil sifatida qaralsa, Shahrixon tumanida o‘ziga xos shakllangan milliy mentalitet, ya’ni qizlarni erta turmushga berish muhim o‘rin tutadi.

Geodemografik omilda yana shuni alohida takidlash lozimki, statistik ma’lumotlar tahlilida 18 yoshgacha ona bo‘lganlarning har mingta 17-18 yoshdagi qizlarga nisbatida ham Andijon, Honobod shaharlari, Oltinko‘l, Andijon, Asaka va Shahrixon tumanlari eng yuqori darajani egallab turibdi. Mazkur tumanlarda mahalla yoshlar yetakchisi, xotin-qizlar faollarini faoliyatlarini yanada kuchaytirishni taqozo etiladi.

Bugungi kunda go‘daklar o‘limining asosiy omili sifatida perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar tashkil etmoqda (63,7 foiz). Keyingi o‘n yillikda perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar bo‘yicha vafot etish ortib borganligi kuzatildi. Bunda onalarni tug‘riqgacha va tug‘riqdan keyingi holatini doimiy nazoratga olish, ularga tibbiy xizmat ko‘rzatish kabi masalalar muhim ahamiyat kasb etadi. Shundan kelib chiqqan xolda, Andijon viloyati shahar va tumanlarida tibbiyot muassasalari soni, tibbiyot muassasalaridagi joylar (koykalar) soni, vrachlar va o‘rta tibbiyot xodimlari soni bo‘yicha tahlillar amalga oshirildi (4-jadval).

4-jadval

Andijon viloyatida tibbiy xizmat ko‘rsatish

Tumanlar	Shifoxonalar soni	Shifoxonalardagi o‘rinlar soni (har 10 ming kishiga nisbatan)	Ambulator poliklinikalar soni	Vrachlar soni (har 10 ming kishiga nisbatan)	O‘rta tibbiyot xodimlari soni (har 10 ming kishiga nisbatan)
Viloyat jami	**162**	**43,31**	**577**	**24,90**	**99,81**
Andijon sh.	68	142,29	151	90,31	250,25
Xonobod sh.	3	28,65	8	19,55	124,38
Oltinko‘l	5	19,52	31	13,22	76,01
Andijon	5	20,75	37	13,61	64,03
Baliqchi	2	34,74	33	14,20	75,72
Bo‘ston	2	23,61	14	8,92	90,52
Buloqboshi	2	32,28	17	16,41	97,32
Jalaquduq	3	28,95	25	15,47	62,30
Izboskan	6	18,85	36	13,50	62,32
Ulug‘nor	1	16,67	11	15,88	112,12
Qo‘rg‘ontepa	5	22,56	39	16,59	69,84
Asaka	12	27,77	52	10,99	70,62
Marxamat	7	38,36	31	18,14	94,96
Shaxrixon	17	26,99	25	12,61	61,41
Paxtaobod	20	39,82	23	14,79	80,03
Xo‘jaobod	4	22,79	44	15,79	92,42

Jadval Andijon viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzildi.

Andijon shahri viloyat markazi bo‘lganligi uchun shifohonalar, undagi o‘rinlar, vrachlar hamda o‘rta tibbiyot xodimlari soni ko‘pchilikni tashkil etmoqda. Bu yerda nafaqat shahar aholisi, balki butun viloyat aholisiga tibbiy xizmat ko‘rsatuvchi tibbiyot muassasalari, jumladan Respublika shoshilinch tibbiy yordam markazi Andijon filiali, viloyat perinatal markazi, yuqumli kasalliklar, teri-tanosil kasalliklari va boshqa shifoxonalar joylashgan. Shifoxonalar soni eng kam bo‘lgan tumanlarga Ulug‘nor (1 ta), Baliqchi, Bo‘ston, Buloqboshi (2 ta) to‘gri kelmoqda.

Andijon viloyati tuman va shaharlarida har 10 mingta aholiga nisbatan to‘gri keluvchi ko‘ykalar soni bo‘yicha Andijon shahri, Baliqchi, Marxamat, Paxtaobod va Buloqboshi tumanlari viloyatda eng yuqori o‘rinlarda bo‘lsa, eng past ko‘rsatkichlar Ulug‘nor, Izboskan, Qo‘rg‘ontepa va Xo‘jaobod tumanlariga to‘gri kelmoqda. Mazkur tumanlarda shifoxonalar va undagi o‘rindiqlar sonini oshirib borish orqali tibbiy xizmat ko‘rsatish darajasini oshirish talab etiladi.

Aholiga tibbiy xizmat ko‘rsatishda oliy ma’lumotli vrachlar, tor ixtisoslashuvha ega mutaxassislarning o‘rni katta hisoblanadi. Viloyat markazi bo‘lgan Andijon sharida vrachlar hamda tor ixtisoslashuvga ega mutaxassislarning ko‘pligi tabiiy xol. Shuningdek, har 10 ming kishiga to‘gri keluvchi vrachlar soni bo‘yicha sihatgohlar faoliyati yaxshi rivojlangan Honobod hamda Marxamat tumanlari ham oldingi o‘rinlarni egallaydi. Eng past ko‘rsatkich esa Bo‘ston, Sharixon, Izboskan tumanlariga to‘gri kelib, mazkur tumanlarga tibbiyot oliygohlari uchun maqsadli kvotalar ajratish katta ahamiyat kasb etadi.

Xulosa va takliflar. Andijon viloyati go‘daklar o‘limida nafas olish a’zolari kasalliklari bilan vafot etish, perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar, tug‘ma anomaliyalar, yuqumli va parazitar kasalliklar bilan kasallanish hamda boshqa sabablar asosiy o‘rin tutadi. 2010 yilda go‘daklar o‘limida nafas olish a’zolari kasalliklari bilan vafot etish eng ko‘p (46,1%) kuzatilgan bo‘lsa, keyingi yillarda perinatal davrda yuzaga kelgan xolatlar asosiy (63,7%) omil bo‘lib qolmoqda;

Andijon viloyatida go‘daklar o‘limida perinatal davrda yuzaga kelgan ba’zi xolatlar asosiy omil bo‘lmoqda. Bunda dastavval, erta nikoh va erta tug‘ruqni oldini olish, homilador onalarga tibbiy xizmat ko‘rsatishni yanada rivojlantirish, bu borada oliy ma’lumotli tibbiyot hodimlari tayyorlashda hududiy tafovutlarni xisobga olgan xolda tibbiyot muassasalarida maqsadli kvotalarni shakllantirish, tibbiyot muassasalaridagi o‘rindiqlar sonini mutanosib ravishda oshirib borish muhim vazifalardan xisoblanadi. Shuningdek, aholi, onalar va bolalar sog‘lig‘iga sal’biy ta’sir etuvchi ekzogen omillar, xususan urboekologik vaziyatni yaxshilash, atmosfera ifloslanishini oldini olish borasida amalga oshirilayotgan “Yashilmakon” umummilliy loyihasini amalga oshirish bugungi kundagi kechiktirib bo‘lmas vazifalardan hisoblanadi.

ADABIYOTLAR

1. Mirziyoev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz.- T., O‘zbekiston 2017.
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “O’zbekiston-2030” strategiyasi to’g’risidagi PF-158 farmoni (https://lex.uz/docs/-6600413)
3. Prezident Sh.Mirziyoyevning Oliy majlisga murojaatnomasi (https://president.uz/oz/lists/view/4051)
4. Абдурахмонов Қ., Абдураманов Х. Демография. Т.: – 2011.
5. Бўриева М.Р. Ўзбекистонда оила демографияси. -Т.: Университет
6. Комилова Н.Қ. Тиббиёт географиясининг назарий ва амалий масалалари. -Тошкент, “SHARQ”, 2016. 277 б.
7. Муҳаммедова Н.Ж. Ўзбекистонда аҳоли ўлимини географик тафовутлари. География фанлари бўйича фалсафа доктори (PhD) илмий даражасини олиш учун ёзилган диссертация автореферати. -Т.: 2019, Б-20
8. Тожиева З.Н. Ўзбекистон аҳолиси: ўсиши ва жойланиши. Т.: - 2010.
9. Темиров З.А. Ўзбекистоннинг Фарғона минтақасида демографик жараёнлар ривожланишининг ҳудудий хусусиятлари (Монография). –Андижон. “Ҳаёт нашри-2020”, 2022. -158 б.
10. Temirov Z.A. Development of demographic processes in the Fergana region of Uzbekistan: yesterday, today, tomorrow // Journal og geology, geography and geoekology № 4 (31) 2022. –P. 736-748. (doi:10.15421/112269)
11. www.stat.uz